



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “8” noyabr

BUYRUQ № 188

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qaroriga muvofiq hamda Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish, shuningdek, korxona va tashkilotlar demografik ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibini takomillashtirish maqsadida,
BUYURAMAN:

1. Statistika agentligining 2023-yil 23-maydagi 22-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo‘yicha qo‘llanmaga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.
2. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo‘yicha
qo‘llanmaga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. Qo‘llanmaning 4-bob 19-bandi:

a) quyidagi 8, 10, 12 va 13-16-xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

sakkizinchi xatboshi, “Masalan, 01.01.2024-yil holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar faollik darajasi quyidagicha topiladi.

$$fd = (fk/ro) \times 100.$$

Bunda:

fk – 01.01.2024-yil holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni;

ro – 01.01.2024-yil holatiga ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar soni;

fd – faollik darajasi.”;

o‘ninchi xatboshi, “Masalan, korxonalarning 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilganlik darajasi quyidagicha topiladi.

$$td = (yt/fk) \times 100.$$

Bunda:

yt – 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar soni;

fk – 01.01.2024-yil holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni;

td – yangi tashkil etilganlik darajasi.”;

o‘n ikkinchi xatboshi, “Masalan, tegishli hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari sonining ushbu hududdagi har 1 000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha miqdori quyidagicha topiladi.

$$im = (thf/ah) \times 1000.$$

Bunda:

thf — tegishli hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni;

ah — tegishli hududdagi jami aholi soni;

im – indikator miqdori (sonda).”;

o‘n uchinchi xatboshi, “**Tadbirkorlik subyektlarini yashovchanlik ko‘rsatkichi** – tadbirkorlik subyektlarini ma’lum vaqt davomida uzluksiz faoliyat yuritishini anglatadi.”;

o‘n to‘rtinchi xatboshi, “Tadbirkorlik subyektlarini yashovchanlik darajasi yangi tashkil qilingandan keyin bir yoki bir necha yil faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning o‘sha davrdagi jami yangi tashkil qilingan korxonalarga nisbatan ulushini bildiradi va korxonalar yangi tashkil qilingandan keyin qancha vaqt yashashi, hududlar va tarmoqlar bo‘yicha korxonalarning yashash darajasidagi farqlar kabi savollarni o‘rganishga imkon beradi.”;

o'n beshinchi xatboshi, "Xususan, muayyan "t" yilda "n" yil davomida yashagan (faoliyat ko'rsatayotgan) korxonalar soni "t-n" yilda tashkil qilingan va "t" yilda ham faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonini bildiradi.";

o'n oltinchi xatboshi, "Masalan, 2024-yilda 3 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni va yashovchanlik darajasi quyidagicha topiladi.

$$t=2024;$$

$$n=3;$$

$$t-n=2024-3=2021;$$

$$s=(y/x) \times 100.$$

Bunda:

y – 3 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2021-yilda tashkil qilingan va 2024-yilda ham faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni);

x – 2021-yilda jami yangi tashkil qilingan korxonalar soni;

s – yashovchanlik darajasi.".

b) 8-10-xatboshilari tegishlicha 9-11- xatboshilar deb hisoblansin.